

**O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining
BAYONI**

2025-yil 7-oktabr

3-son

Toshkent shahri

Raislik qildi: A. Ayubjonov – Jamoatchilik kengashi raisi.

Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a‘zolari, Milliy statistika qo‘mitasi raisi o‘rinbosari va tegishli tarmoq boshqarma va bo‘lim boshliqlari.

KUN TARTIBI:

- I. 2025-yil III chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot;**
- II. Aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish masalalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobot;**
- III. Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili;**
- IV. Milliy statistika qo‘mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan va ko‘rib chiqilgan murojaatlar bo‘yicha III chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar**

(A. Ayubjonov, Z. Tojiyeva, U. Abdurasulov)

Milliy statistika qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi (keyingi o‘rinlarda Jamoatchilik kengashi) raisi A. Ayubjonov yig‘ilishni ochib berib, kun tartibidagi masalalar bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

I. 2025-yil III chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar to‘g‘risida rais o‘rinbosari Z. Ziyayevning hisoboti eshitildi:

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida jami **2404 ta** statistika ishlari belgilangan muddatlarda va to‘liq hajmda bajarildi, shundan **1262 tasi** Milliy statistika qo‘mitasi va uning organlari tomonidan, **681 tasi** rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan va **461 tasi** boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan bajarildi.

Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan, iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko‘rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistika ma‘lumotlari har oyda Hukumatga taqdim etib borildi.

2025-yilning yanvar-sentabr davrlari uchun O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo‘yicha statistika ma’lumotlari tayyorlanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank hamda boshqa vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq bajarilgan ishlar natijalariga ko‘ra shakllantirilgan ochiq statistika ma’lumotlari, axborotnomalar, to‘plamlar, press-relizlar ko‘rinishida hamda ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e’tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi qo‘mitaning rasmiy Telegram kanalida **1218 ta**, Facebook sahifasida **1039 ta** va Instagram sahifasida **663 ta** yangiliklar e’lon qilindi.

Shuningdek, **20 ta** infografika roliklari hamda statistika faoliyatiga oid **137 ta** lavhalar “O‘zbekiston 24” telekanalida doimiy tarzda efirga uzatilib kelinmoqda.

“Xalq so‘zi”, “Narodnoye slovo”, “Yangi O‘zbekiston”, “Pravda Vostoka”, “Birja” va boshqa nashrlarda statistika ko‘rsatkichlari aks etgan **44 ta** materiallar chop etildi.

Xalqaro statistika amaliyoti tavsiyalarini inobatga olgan holda, statistika sohasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha 2025- yil yanvar-sentyabr oylarida **23 ta** yangi uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqildi.

Ochiq ma’lumotlar portali faoliyatini takomillashtirish, ma’lumotlar sifatini oshirish va ko‘lamini kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida, portalda e’lon qilinayotgan ma’lumotlar to‘plamlari soni **7 mingdan** oshdi.

Jumladan, Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan portalda e’lon qilinayotgan statistika ma’lumotlari to‘plamlari soni **2198 tani** tashkil qildi.

Xalqaro tashkilotlar bilan sohani rivojlantirish, ilg‘or tajribalar va zamonaviy uslubiy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish yuzasidan yaqindan hamkorlik hamda mamlakat ko‘rsatkichlarini xalqaro axborot bazalarida aks ettirish yuzasidan axborot almashinuvi aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida xalqaro tashkilotlarning **38 ta** savolnomalari, jumladan, BMT Statistika bo‘limining **9 ta**, YUNESKO statistika institutining **9 ta**, MDH Davlatlararo Statistika Qo‘mitasining **2 ta**, Xalqaro avtomobil yo‘llari federatsiyasining **1 ta** va boshqa xalqaro tashkilotlarning **17 ta** savolnomalari to‘ldirilib, taqdim etildi.

Bundan tashqari, **4 ta** xalqaro ma’lumotlar bazalaridagi, xususan, XVJning kengaytirilgan Ma’lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi doirasida, MDH va “COMTRADE” ma’lumotlar bazalarida O‘zbekistonning statistika ko‘rsatkichlari o‘z vaqtida yangilandi.

Jumladan, tovarlar savdosi bo'yicha BMTning "COMTRADE" axborot bazasida **4492 ta** tovar turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ma'lumotlarini har oyda yangilab borilishi ta'minlandi.

Shu bilan birga, 2026- yil uchun Statistika dasturi loyihasi 2025- yil sentabr oyida jamoatchilik kengashiga kelishish uchun kiritildi.

II. Aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish masalalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi boshlig'i Sheraliyev Nurbek Abduxalilovich ma'lumot berdi.

O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi PF-173-son "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida" Farmoni ijrosiga muvofiq respublikamizda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish ishlari davom etmoqda.

2025-yil 24-fevraldagi PF-27 va PQ-75da belgilangan ustuvor vazifalarni inobatga olgan holda hamda xorijiy va MDH davlatlari ilg'or tajribalarini o'rgangan holda Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi tomonidan yangi "O'zbekiston Respublikasida 2025- yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasida 2025- yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi PF-173-son "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida" Farmoni imzolandi. Farmon loyihasi bilan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazishning aniq sanasi va muddati belgilanadi.

Ushbu farmonga ko'ra aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri 2026-yilning 15-yanvaridan 28-fevraliga qadar o'tkaziladi va ro'yxatga olish sanasi 2026-yil 15-yanvar 00 soat 00 daqiqa etib belgilanadi. Ro'yxatga olishni o'tkazish davomiyligi 45 kun etib belgilandi. Shuningdek farmon asosida O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlanadi, mas'ul vazirlik va idoralar asosiy vazifalari belgilab berildi.

PF-173-son ijrosi yuzasidan "O'zbekiston Respublikasida 2025- yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi tayyorlanmoqda.

Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasida quyidagilarni tasdiqlash nazarda tutilmoqda:

- O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom;

- O‘zbekiston Respublikasida 2025-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish, uni o‘tkazish, natijalarini tahlil qilish va e‘lon qilish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini;

- O‘zbekiston Respublikasida 2025-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish dasturi;

- O‘zbekiston Respublikasida 2025-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish savolnoma shakllari ro‘yxati;

- 2025-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazishga ko‘maklashish bo‘yicha hududiy komissiyalarning namunaviy tarkibi va ularning asosiy vazifalari;

- 2025-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ishchi guruhi tarkibi va uning asosiy vazifalari.

Sinov tariqasida aholini ro‘yxatga olish natijalari va xalqaro ekspertlarning (BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi (YUNFPA), Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) va Belarus Milliy statistika qo‘mitasi) tavsiyalaridan kelib chiqib, aholiga yanada qulay bo‘lishini ta‘minlash maqsadida quyidagi 6 xil shakldagi ro‘yxatga olish savolnomalari tayyorlandi va takomillashtirildi:

1-shakl “Turar joyning xususiyatlari va unda yashovchilar ro‘yxati”;

2-shakl “Shaxsga oid savolnoma”;

3-shakl “O‘zbekiston Respublikasiga vaqtincha kelgan chet el fuqarolari uchun savolnoma”;

4-shakl “Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma‘lumotlarni yig‘ish bo‘yicha savolnoma”;

5-shakl “Uy xo‘jaligini qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanishi bo‘yicha savolnoma”;

6-shakl “Yuridik shaxslar uchun qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanishi bo‘yicha savolnoma”.

PF-17Z-son Farmonining Milliy statistika qo‘mitasi tizimida ijrosini ta‘minlash, hududlarda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni samarali tashkil etish maqsadida

2025-yil 22-sentyabrda Milliy statistika qo‘mitasining 87-son buyrug‘i imzolandi. Ushbu buyruq asosida qo‘mitada ro‘yxatga olish shtabi tuzildi va ishchi guruhlar tarkibi, ularning vazifalari tasdiqlandi.

Prezident farmoni ijrosini ta‘minlash va ro‘yxatga olishga puxta tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan Ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o‘tkazish boshqarmasi xodimlari tomonidan “Ro‘yxatga olishni o‘tkazishning tashkiliy rejasini tuzish bo‘yicha Yo‘riqnomasi”, hududiy statistika organlari, vaqtincha jalb qilingan ro‘yxatga olish xodimlarini o‘qitish bo‘yicha Dastur va mavzular bo‘yicha taqdimotlar, ro‘yxatga olish xodimlarining mehnat muxofazasi bo‘yicha Yo‘riqnomasi, ro‘yxatga olish shtablarini tashkil etish talablari va boshqa tashkiliy jadvallar ishlab chiqildi.

Shuningdek hududiy statistika organlari xodimlarini o‘qitish bo‘yicha 2025-yilning 24-26-sentyabr va 2-4-oktyabr kunlari Milliy statistika qo‘mitasida ro‘yxatga olishning mazmun-moxiyati, planshet qurilmalarida savolnomalarni to‘ldirish

bo'yicha seminarlar tashkil etildi. Yuzaga kelgan muammoli masalalar yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Shuningdek hozirda 2025-yil noyabr oyida o'tkazilgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning axborot tizimini sinovdan o'tkazish ishlari bo'yicha uslubiy va tashkiliy tomondan tayyorgarlik ishlari olib borildi. Ro'yxatga olishning axborot tizimining 3 xil ko'rinishi: internet, planshet va mobil versiyalari ishlab chiqildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Farmon ijrosi yuzasidan qarorlari qabul qilinib, hududiy komissiyalar (viloyat, tuman, shahar) va chora-tadbirlar rejalari tasdiqlandi.

Shuningdek, ro'yxatga olish jarayonlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish maqsadida manfaatdor vazirlik va idoralardan iborat Respublika shtabi ishlari yo'lga qo'yildi.

Ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rishda uslubiy va tashkiliy ishlarni amalga oshirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparati boshqaruv xodimlari soni 14 ta shtat birligiga oshirildi va ro'yxatga olish bo'yicha bilim va tajribaga ega xodimlar hamda axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar bilan butlandi.

2025-yil dekabr oyi davomida Respublika hududlarida ayrim toifalar bo'yicha aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ishlari to'liq yakunlangan. Barcha vazirlik va idoralar kesimida ro'yxatga olish ko'rsatkichlari 100 foizni tashkil etdi.

Ro'yxatga olish jarayoni bo'yicha "Ro'yxatga olishning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish tartibi to'g'risidagi nizom loyihasi ishlab chiqildi" va 2025-yil 28-noyabrda 21-son qaror bilan tasdiqlandi.

Hududiy statistika boshqarmalariga 2025-yil 1-oktyabrdan 2026-yil

1-mayga qadar umumiy hisobda 70 nafar (har bir boshqarmaga 5 nafardan) fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnoma asosida mutaxassislar jalb etildi.

Xududiy statistika boshqarmalarining shahar va tuman bo'limi xodimlarini, "Mahalla yettiligi" xodimlarini 208 ta tuman hokimliklari binosining majlislar zaliga yig'gan holda GPS-tizimi bo'yicha zoom orqali to'liq o'qitildi va "Mahalla yettiligi" xodimlari bu o'qitishda to'liq ishtirok etishdi.

Shuningdek, "Mahalla yettiligi" xodimlari tomonidan GPS-koordinatalarini maxsus axborot tizimiga kiritish jarayoni 100 % to'liq yakunlandi.

Hozirda GPS-koordinatalarini maxsus axborot tizimiga kiritishda ishtirok etgan "mahalla yettiligi" xodimlariga to'lov ishlarini amalga oshirish uchun dalolatnomalar yig'ilmoqda.

III. Milliy statistika qo'mitasi faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili.

Milliy statistika qo'mitasida 2025-yilning III choragida korrupsiyani oldini olish va murosasiz muhitni shakllantirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi.

Markaziy apparat va hududiy organlarda 80 ga yaqin seminar-treninglar o'tkazildi. 24-iyunda qabul qilingan 63-son buyruq asosida 12 ta siyosat va reglament yangilandi. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish doirasida barcha xodimlardan deklaratsiyalar olindi: markaziy apparatda holatlar aniqlanmagan, hududiy tizimlarda esa 2 ta holat qayd etilib, bartaraf etildi.

Shartnomalarda korrupsiyaga qarshi bandlar mustahkamlandi, qoidabuzarliklar aniqlanmadi. Chorak davomida 138 ta murojaat kelib tushib, ularning birortasi korrupsiyaga oid bo'lmadi. Ishga qabul qilish jarayonlari ochiq tanlov orqali o'tkazilib, 1300 dan ortiq xodim targ'ibot tadbirlarida, yangi qabul qilingan 50 dan ortiq xodimlar esa maxsus kurslarda qatnashdi. 1000 dan ortiq targ'ibot materiallari tarqatildi.

Toshkent shahar va Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rganishlar o'tkazildi, hududlarda 11 ta seminar tashkil qilindi. Chorak yakunida markaziy va hududiy organlarda korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar aniqlanmadi.

Tizimda bir nechta sohalar inson omilini kamaytirish maqsadida raqamlashtirildi. Shu o'rinda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar bilan munosabatlarda "CATI" (Kompyuter texnologiyalari asosida telefon intervyu)lar joriy etildi.

Xulosa qilib aytganda, ichki nazorat bo'limi tizimdagi xavf-xatarlarni kamaytirish va murosasiz muhitni mustahkamlash bo'yicha rahbariyatga muntazam takliflar kiritmoqda.

IV. Milliy statistika qo'mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan va ko'rib chiqilgan murojaatlar bo'yicha II chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar.

Milliy statistika qo'mitasida murojaatlar bilan ishlashni samarali tashkil etish va ijrosini nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2025-yil yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda 12 ta sayyor qabul o'tkazilib, 297 nafardan ortiq fuqaro va tadbirkorlar ishtirok etdi. Murojaatlarning ko'pi joyida hal qilindi, 84 tasi ro'yxatga olinib, belgilangan tartibda javob berildi.

Milliy statistika qo'mitasiga 2025-yil yakuni bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning jami soni 961 tani tashkil etib, ularning 434 (45,2%) nafar jismoniy shaxslar, 527 (54,8%) nafar yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keldi.

Shundan, 189 ta murojaat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 465 tasi elektron pochta orqali, 282 tasi og'zaki murojaatlar, 25 tasi to'g'ridan – to'g'ri kelib tushgan

Murojaatlar mazmuni:

- 504 tasi (52,5 %) – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar taqdim etish;
- 221 tasi (22,9 %) – amaliy yordam so'rash;
- 113 tasi (11,8 %) – Yagona davlat registri masalalari;
- 75 tasi (7,9 %) – statistik hisobotlarni taqdim etish;
- 21 tasi (2,2 %) – ish staji, ish haqi, tashkilot nomining o'zgarishi to'g'risidagi arxiv ma'lumotlari;
- 3 tasi (0,3%) taklif;
- 6 tasi (0,6%) shikoyat;
- 18 tasi (1,8 %) – boshqa masalalar.

Hududlar kesimida eng ko‘p murojaatlar Toshkent shahridan (493 ta, 51,3 %) kelib tushdi.

Jami 961 murojaatdan 877 tasi ko‘rib chiqildi, 84 tasiga tushuntirish berildi, Barcha murojaatlar rahbariyat nazoratida bo‘lib, o‘z vaqtida javoblar taqdim etildi.

Jamoatchilik kengashi qaror qiladi:

1. Taqdim etilgan hisobotlar ma‘lumot uchun qabul qilinsin;
2. “2025-yil uchun Statistika dasturi” doirasida 2025- yil III chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar to‘g‘risida hisobot va jamoatchilik kengashiga “2026- yil uchun Statistika dasturi” loyihasini ma‘qullash uchun kiritilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
3. “2025-yil uchun Statistika dasturi” va uni tasdiqlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihalari ma‘qullansin.
4. Xodimlar malakasini oshirish, xorijiy tajribani o‘rganish, o‘quv kurslari va seminarlar muntazam tashkil etilsin hamda keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida rasmiy veb-sayt, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali tizimli yoritilishi ta‘minlansin;
5. Jamoatchilik kengashi huzurida ijro intizomini mustahkamlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish va aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar qat‘iy nazoratga olinsin. Kengash kotibi yig‘ilish bayoni nusxasini Milliy statistika qo‘mitasiga taqdim etishni ta‘minlasin.

Jamoatchilik kengashi
mas‘ul kotibi



U. Abdurasulov